



IJTIMOYIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNALI

ISSN 3060-5059



VOL.3 № 4

2026

ABDULLA QODIRIYNING “O‘TKAN KUNLAR” ROMANIDA QO‘LLANILGAN LEKSIK VA FRAZEOLOGIK BIRLIKLAR TARJIMASINING STRUKTURAVIY- SEMANTIK TAHLILI

Tursunov Elmurod Umrzoqovich

O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti, katta o‘qituvchi

Annotatsiya

Mazkur maqolada A. Qodiriyning “O‘tkan kunlar” romanida qo‘llangan ayrim leksik birliklarini ingliz tiliga o‘g‘irishda ularning strukturaviy-semantik hamda uslubiy jihatlariga e‘tibor qaratish masalasi yoritilgan bo‘lib, leksik va frazeologik birliklar tarjimasida ekvivalentlikka erishish uchun qanday vositalardan foydalanish kerakligi haqida so‘z boradi. Muammoni yoritishda asar tarkibida qo‘llanilgan ba’zi leksik birliklar tanlab olinib, ularning inglizcha tarjima variantlari qisqartirilgan hamda ekvivalentlik darajasi aniqlangan. Tarjimashunoslikning ilmiy-nazariy umumlashmalari hamda sohada qo‘lga kiritilgan amaliy natijalar asosida leksik roman tarkibidagi strukturaviy va uslubiy jihatdan muallifning o‘ziga xos badiiy mahorati natijasida xoslangan birliklar inglizcha tarjimalarida qanday usullardan foydalanish to‘g‘risida tavsiyalar berilgan.

Kalit so‘zlar: leksik birliklar, ekvivalentlik, frazeologik birliklar, semantik va strukturaviy xususiyatlar.

СТРУКТУРНО-СЕМАНТИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ ПЕРЕВОДА ЛЕКСИЧЕСКИХ И ФРАЗЕОЛОГИЧЕСКИХ ЕДИНИЦ, ИСПОЛЬЗОВАННЫХ В РОМАНЕ АБДУЛЛЫ КАДЫРИ «МИНУВШИЕ ДНИ»

Турсунов Элмурод Умрзакович

Старший преподаватель Узбекского государственного университета мировых языков

Аннотация

В данной статье рассматривается вопрос учета структурно-семантических и методологических аспектов некоторых лексических единиц, использованных в романе А. Кадири «Минувшие дни», при их переводе на английский язык, а также обсуждаются методы, которые следует использовать для достижения эквивалентности при переводе лексических и фразеологических единиц. Для освещения проблемы были отобраны некоторые лексические единицы, использованные в произведении, проведено сравнение вариантов их английского перевода и определен уровень эквивалентности. На основе научных и теоретических обобщений переводоведения и практических результатов, полученных в данной области, даны рекомендации по методам, которые следует использовать при английском переводе единиц лексического романа, структурно и методологически характеризующихся уникальным художественным мастерством автора.

Ключевые слова: лексические единицы, эквивалентность, фразеологические единицы, семантические и структурные особенности.

STRUCTURAL-SEMANTIC ANALYSIS OF THE TRANSLATION OF LEXICAL AND PHRASEOLOGICAL UNITS USED IN ABDULLA QODIRIY’S NOVEL BYGONE DAYS

Tursunov Elmurod Umrzakovich

Senior Lecturer, Uzbekistan State World Languages University

Abstract

This article discusses the issue of considering the structural, semantic and methodological aspects of some lexical units used in the novel “Bygone Days” by Abdulla Kadiri when translating them into English, and discusses what tools should be used to achieve equivalence in the translation of lexical and phraseological units. In order to shed light on the problem, some lexical units used in the work were selected, their English translation options were compared, and the level of equivalence was determined. Based on the scientific and theoretical generalizations of translation studies and the practical results obtained in the field, recommendations are given on what methods should be used in the English translations of units in the lexical novel that are structurally and methodologically characterized as a result of the author’s unique artistic skill.

Keywords: lexical units, equivalence, phraseological units, semantic and structural features.

Tarjima jarayonida tarjimon asliyat matnini birdaniga va yaxlit holda boshqa tilda qayta ifoda qila olmaydi. “O‘zga tilda bitilgan badiiy yodgorlikning davr talabi darajasida tasavvur beradigan tarjima matnini yaratish san’atkorning bu sohadagi amaliy va nazariy bilimlar bilan puxta qurollanishi zaruratini tug‘diradi” [1; 3-b.].

Til ma’lum tuzilishga ega bo‘lgan murakkab ijtimoiy muloqot vositasi hisoblanib, uning asosini, asosan, leksik birliklar tashkil etadi. Tarjima jarayonida leksik birliklarning strukturaviy-semantik, badiiy-estetik hamda lisoniy-uslubiy xususiyatlarini yaxshi bilish ekvivalent tarjima mahsulini yaratish imkonini beradi. Garchi har bir so‘z leksik birlik sanalsa-da, so‘z va leksik birlik bir xil narsa emas. Ayrim leksik birliklar badiiy adabiyotlarda obrazli-hissiy va ta’sirchan ifoda vositasi sifatida qo‘llaniladi.

“O‘tkan kunlar” romani leksikasida qo‘llanilgan leksik birliklar semantik-strukturaviy xususiyatiga ko‘ra juda boydir. Asarda keltirilgan leksik birliklar, hikmatli so‘zlar, matallar, asar qahramonlari tilidan aytiladigan “qanotli iboralar”, frazeologik birliklar badiiy-uslubiy, semantik-strukturaviy hamda ramziy-tavsifiy jihatdan shu qadar teranki, ular hozir ham o‘z jozibasini yo‘qotmagan.

“O‘tkan kunlar” romanidan keltirilgan quyidagi misolga e’tibor qaratamiz: “Otabek o‘zi bilan ko‘rishgan mundagi ikkita yot kishini tanimagani sababli bir-ikki qayta ularni ko‘z ostidan kechirdi” [2; 13-b.]. Mazkur jumladagi *ko‘z ostidan kechirmoq* (tekshirmoq) so‘z birikmasi ham ana shunday badiiy-obrazli tarzda ifoda qilingan. Asarda bu kabi badiiy-emotsional bo‘yoqdorlikka yo‘g‘rilgan leksik va frazeologik birliklar talaygina, ammo hozirgi zamon kitobxonlari uchun ularni tushunish alohida topqirlik va ziyraklikni talab etadi. Yozuvchi ushbu so‘z birikmasini sodda qilib, “ularga bildirmay zimdan tekshirdi” deb qo‘llashi ham mumkin edi, biroq unda mazkur birikmaning tarkibiy qismi hajman kengayib ketar edi. Boshqa tomondan, adib chiqish kelishigi yordamida yasalgan tobe so‘z tarkibidagi *ko‘z osti* leksemasiga hokim so‘z o‘rnida qo‘llanilayotgan *kechirmoq* leksemasini biriktirish orqali *ko‘zdan kechirmoq* so‘z birikmasiga yana bir semantik yuklama qo‘shganini ko‘rish mumkin: (*ko‘z kechirmoq*) + (*ostidan* = *zimdan, bildirmay*) = [*ko‘z ostidan kechirmoq*]. Bundan tashqari, *so‘ramoqchi bo‘lmoq* ma’nosini bildiradigan oddiy birikma *so‘ramoqqa og‘zini juflamoq* shaklida, *fikrni o‘zgartirmoq* so‘z birikmasi *butunlay boshqa kishi yasamoq* qabilida va *sevinmoq* fe’li esa *terisiga sig‘may ketmoq* tarzida ifodalangan.

Asarda “adovat, ig‘vogar, g‘araz, tahorat, peshqadam, g‘ijinmoq, ta’ma, zahmat, majol, ajabsinmoq, andisha, ixramoq, ko‘zi olalamoq, izg‘iriy, iltifot, yanglig‘, xo‘jazoda, xomushlik, muqaddima, vasvasalamoq, kashf, javhar, kiroyi, davlatlik” kabi leksik birliklar qo‘llanilgan bo‘lib, ular I. Tuxtasinov, K. Ermakova va M. Riz tarjimalarida qanday ifodalanganini kuzatish katta qiziqish uyg‘otadi. Asarning 1-bo‘limi “Bek oshiq” nomli 3-faslidagi shunday jumla uchraydi:

“Ul (Xasanali) yegan sovug‘iga iltifot etmas, vujudini izg‘iriyqa topshirib, fikrini hujra ichiga yuborgan edi” [3; 23-b.].

Parchadagi ajratib ko'rsatilgan so'zlar I. Tuxtasinov, O. Mo'minov va A. Hamidovlar tomonidan qilingan tarjimada quyidagicha o'g'irilgan:

“Not paying attention to the shiver and giving his body to the mercy of the wind, he drew his thoughts to the room.” [4; 24-b.]

Tarjimaning mazmuni: *Titroqqa ahamiyat bermay va tanasini shamol hukmiga topshirib, u fikrini xona ichiga yubordi* (muallif tarjimasi).

Ko'rinib turibdiki, jumla tarkibidagi *iltifot, izg'iriq va hujra* leksemalari ingliz tiliga mos ravishda *attention, wind* va *room* tarzida ag'darilgan bo'lib, asarda ifodalangan badiiy jo'shqinlik, adib uslubining nozik nuqtalari va qahramonning ichki kechinmasi yetarli darajada ochib berilmagan.

Asliyat matnidagi mazkur parcha Kerol Ermakova talqinida inglizchaga quyidagicha o'g'irilgan:

“Paying no heed to his shivers and abandoning his body to its torment, he trained all his attention on Atabek's chamber.” [5; 26-b.]

Tarjimaning mazmuni: *Titroqlarga e'tibor bermay, tanasini azobga topshirib, u butun e'tiborini Otabekning hujrasiga qaratdi* (muallif tarjimasi).

Bu tarjima variantida yuqoridagi uchala leksema *heed, torment* va *chamber* shaklida tarjima qilingan. Birgina *izg'iriq* leksemasining *torment* shaklida berilganini uning to'liq muqobili deb bo'lmasligini inobatga olsak, ushbu tarjima avvalgi variantga nisbatan ancha durustroq o'g'irilganini ko'rish mumkin.

Endi ushbu jumlaning Mark Riz talqinidagi inglizcha variantiga e'tibor qaratamiz:

“Yet he managed to brush it [a cold snap] aside by surrendering his body to its severity and sending his good thoughts to Otabek's room.” [6; 42-b.]

Tarjimaning mazmuni: *Ammo u sovuqqa e'tibor bermay, tanasini keskinlikka topshirib, fikrini Otabekning xonasiga yuborgan edi* (muallif tarjimasi).

M. Riz ajratib ko'rsatilgan leksemalarni *a cold snap* va *room* tarzida tarjima qiladi. Bu tarjima variantida ham matn tarkibidagi lug'aviy birliklarning (*izg'iriq, hujra*) inglizcha muqobiliga nisbatan nomutanosiblik mavjudligini ko'rish mumkin.

1-jadval

Romandagi iltifot, izg'iriq va hujra leksemalari qatnashgan jumlaning uchala tarjima variantida berilishi

Asliyat	I. M. Tuxtasinov talqinida	Kerol Ermakova tarjimasi	Mark Riz o'g'irmasi
Ul (Xasanali) yegan sovug'iga iltifot etmas, vujudini izg'iriqqa topshirib, fikrini hujra ichiga yuborgan edi.	Not paying attention to the shiver and giving his body to the mercy of the wind, he drew his thoughts to the room.	Paying no heed to his shivers and abandoning his body to its torment, he trained all his attention on Atabek's chamber.	Yet he managed to brush it (a cold snap) aside by surrendering his body to its severity and sending his good thoughts to Otabek's room.

Asarning har uchala tarjimasida *iltifot, izg'iriq* va *hujra* leksemalari har xil darajada o'z muqobillarini topganini ko'rish mumkin. Muammo shundaki, birinchidan, *iltifot* so'zi alohida olinganda “o'g'irish, burish, lutf qilish, e'tibor, marhamat” [7; 199-b.] ma'nolarini ifodalaydi, ammo asliyatdagi jumlada ushbu leksik birlik so'z birikmasi tarkibida qo'llanib, “e'tibor qaratmoq” ma'nosini bildirgan. Jumlaning *Ul [Xasanali] yegan sovug'iga iltifot etmas* qismi *paying no heed to the cold he suffered* tarzida tarjima qilinganda, adibning qahramon ichki kechinmasiga nisbatan badiiy-uslubiy yondashuvi inglizchada ham to'laqonli aks etgan bo'lar edi.

Ikkinchidan, jumlaning “...vujudini izg'iriqqa topshirib, fikrini hujra ichiga yuborgan edi” qismidagi *izg'iriq* leksemasi yuqoridagi tarjima variantlarida *wind, torment, severity* shakllarida o'g'irilgan. O'zbek tilining izohli lug'atida *izg'iriq* (*izg'irin* so'zining sinonimi) so'ziga

“achchiq sovuqli bo‘ralagan shamol” [8; 184-b.] deb ta’rif berilgan. K. Ermakova tarjimasida bu so‘z o‘zbek tilidagi “azob, uqubat, ozor, mashaqqat” ma’nolarini tashuvchi inglizcha *torment* leksemasi yordamida, I. M. Tuxtasinov talqinida *wind* va M. Riz tomonidan esa *severity* (og‘irlik, qattqlik, keskinlik) so‘zi orqali o‘girilgan. Ammo asar voqealari yanvar-fevral oylarida, tun yarmida sodir bo‘layotgani, *shamol* va *izg‘iriy* ayni bir xil tabiat hodisasi emasligini inobatga olsak, tadqiq etilayotgan so‘z (*izg‘iriy*) har uchala tarjimada ham o‘z ekvivalentini to‘liq topmagan. Sababi, *izg‘iriy* = *achchiq sovuqli bo‘ralagan shamol*. Bu inglizchada *cutting wind*, *piercing wind*, *penetrating wind*, *searching wind* tarzida o‘girilishi mumkin.

Endi ravish holi shaklidagi “...vujudini *izg‘iriy*qa topshirib” birikmasini olaylik. I. Tuxtasinovda bu parcha *giving his body to the mercy of the wind*, K. Ermakova tarjimasida *abandoning his body to its torment*, M. Riz tomonidan esa *surrendering his body to its severity* deb o‘girilgan. Ravishdosh tarkibli ravish holi shaklidagi mazkur parchani *surrendering himself to the piercing wind* tarzida o‘g‘irish maqsadga muvofiq bo‘lar edi.

Nihoyat, asliyat matnidagi *fikrini hujra ichiga yuborgan edi* qismini ko‘rib chiqamiz. An’anaviy o‘zbek me’morchiligidagi eng kichik xona, bir yoki bir necha kishiga mo‘ljallangan yotoqxona ma’nolarida qo‘llaniladigan *hujra* so‘zini ingliz tiliga *chamber* tarzida o‘g‘irish mumkin. I. Tuxtasinov va M. Riz tarjimalarida esa bu so‘z shunchaki *room* deb o‘girilgan. Demak, berilgan butun jumla inglizchaga *Paying no heed to the cold he suffered*, *Xasanali sent his thoughts to the chamber*, *surrendering himself to the piercing wind* tarzida tarjima qilinganda, asarning badiiy-estetik va hissiy-tasviriy ifodasi o‘z o‘rniga tushgan va uning lug‘aviy muvofiqligi ham qaror topgan bo‘lar edi.

Tarjimon asliyat matnini eng kichik tarjima qilinishi mumkin bo‘lgan qismlarga ajratib, har bir qismni boshqa tilda o‘sha tilning lisoniy, strukturaviy, semantik, badiiy-uslubiy va boshqa jihatlarini hisobga olgan holda unga aynan mos keluvchi, uning o‘rnini bosa oladigan ekvivalentini topadi. Bunda uning bajarayotgan vazifasini muayyan millat madaniyatiga xos, yozma yoki og‘zaki usulda barpo etilgan “inshoot”ni boshqa millat hududida aynan o‘sha yerning milliyligi, o‘ziga xos xususiyatlari, iqlimi va vazifadoshligidan kelib chiqib qayta qurayotgan xassos, mahoratli va tajribali quruvchiga mengzash mumkin. Binobarin, mazkur “imorat”ning qurilish materiali sifatida aynan tarjima birliklari olinadi. “Asliyat matnidagi morfemalar tarjima matnida ham morfemalarga (kalkalashtirish usuli bilan), so‘zlar so‘zlarga (leksik mutanosiblik), so‘z birikmalari boshqa so‘z birikmalariga, gaplar gaplarga va nihoyat, matnlar esa matnlarga tarjima qilinadi” [9; 174–189-b.]. Tarjima birliklari fonemadan to matngacha bo‘lishi mumkinligi bois, so‘z va mazmunan so‘zga tenglashtiriladigan so‘z birikmalari, ya’ni tarjimada leksik birliklar mazkur tadqiqot obyekti qilib tanlab olingan.

Bundan tashqari, tarjima jarayonida tillarning o‘ziga xos kognitiv hamda lingvomadaniy xususiyatlariga ham alohida e’tibor qaratish lozim, chunki turli millat vakillari voqelikni turlicha qabul qiladi. V. Humboldt ham turli millat va madaniyat vakillari asl voqelik haqidagi tasavvurlari bir-birlariga mos kelmasligini ta’kidlagan. “Turli tillar — yagona bir predmetni turlicha nomlashdan ko‘ra, ushbu predmetni turlicha ko‘rish, idrok etishdir” [10; 9-b.]. Demak, bunda tarjimonning kitobxonga har ikki tilda — asliyat va tarjima tillarida — ayni bir voqelik haqida bir xil tasavvur bera olishini “tarozining har ikki pallasini”ni birdek tutib turuvchi, yoki muvozanatni saqlash uchun “dor ustida langar cho‘p bilan harakatlanayotgan” dorbozga o‘xshatish mumkin.

Sh. Safarov o‘zgarma voqelikning har xil idrok etilishi haqida so‘z yuritib, quyidagi fikrlarni ilgari suradi: “...G‘arb va Sharq madaniyatlarida turlicha idrok qilinishi haqidagi bir misolini keltirmoqchiman. Bu ikki madaniyat vakillari ‘yozuv stoli’ (*desk*) kategoriyasini turlicha prototiplar ko‘rinishida tasavvur etadilar. Ma’lumki, Xitoy va Yaponiyada yozayotgan kishi yerga tizzalab o‘tirgan, shuning uchun yozuv stoli prototipi kalta oyoqli, past bo‘lgan (o‘zbeklar madaniyatiga oid ‘xontaxta’ so‘zini eslang). G‘arbda esa yozuv bilan mashg‘ul shaxs kursiga o‘tirgan va stol to‘rt oyoqli, yarim belgacha keladigan predmetdir” [11; 72-b.].

Biroq A. Vejbitskaya birlamchi hissiy unsurlar barcha madaniyat va tillarda bir xilda

mavjud bo'lishi mumkin emas deb hisoblaydi. U nemis tilidagi *Angst* (qo'rqinch) va rus tilidagi *empax* tushunchalarini, shuningdek ruscha *грусть, гнев* so'zlarini inglizcha *sadness, anger* bilan solishtirib, ular vositasida nomlanayotgan emotsional holatlar barcha madaniyatlarda ham bir xil vaziyatlar ifodasini bermasligiga ishonch hosil qiladi [12; 272-b.].

Borliqdagi barcha moddiy va nomoddiy jism va hodisalar singari til ham muttasil o'zgarishlarga uchrashi sir emas. Tarjimon so'zlarda ro'y beradigan strukturaviy-semantik o'zgarishlardan ham ogoh bo'lmog'i lozim, chunki vaqt o'tishi bilan tilning rivojlanishi natijasida yuzaga keladigan lisoniy va g'ayrilisoniy omillar ta'sirida ayrim so'zlar va tushunchalar o'z ma'nosini yoki shaklini o'zgartirishi, shuningdek, bir tilga mansub leksika boshqa tillar lug'at tarkibidan joy olishi mumkin.

G'. Salomovning "Tarjima nazariyasi asoslari" nomli kitobida muallif hozirda ko'plab tillarda va fanda qo'llanib kelinayotgan *admiral* (arabchadan *amir ul-bahr*), *alkogol* (arabcha *al-kuhl* so'zidan), *algoritm* (arab tilidagi *Al-Xorazmiy* so'zidan), *almanax* (arabcha *al-manah* so'zidan), *siror* (arabcha *sharob* so'zidan) va minglab boshqa so'z hamda terminlarni misol qilib ko'rsatadi [13; 25-b.].

"Sinus" so'zini lotin tilidan tarjima qilganda, bu "qo'ltiq, ko'rfaz" ma'nosini beradi. Ajabo, ko'rfazga sira ham o'xshamaydigan matematik funksiyaga nima sababdan bunday nom berilgan? Ma'lum bo'lishicha, "sinus"ni arabchada "jayb" deyisharkan. "Jayb" esa kamar, ya'ni yoyga tortilgan egri shakl ma'nosini beradi [14; 25-b.]. Olimlar Usmon va Renat Doniyorovlarning "Ruscha-internatsional so'zlar izohli lug'ati"da ham osmon sferasining kuzatuvchi turgan nuqtasidagi tik nuqtani ifodalovchi "zenit" so'zining arab tilidagi "samt" so'zining buzilgan shakli ekanligi bu fikrni tasdiqlaydi [15; 168-b.].

I. G'afurov, O. Mo'minov, N. Qambarovlar tomonidan chop etilgan "Tarjima nazariyasi" nomli o'quv qo'llanmada "Iskandarning shoxi bor degan" qiziq bir jumla tarjimasi ustida bahs yuritiladi. Mualliflar milliy va madaniy xususiyatli so'zlar yoki birikmalarni o'girishda tarjimondan yuqori bilim va tajriba talab etilishini ta'kidlaydi: "Ko'rinishdan oddiy jumla tarjimon xayolida shuncha assotsiatsiyalar uyg'otadi. U jumlaning Yevropa tillariga tarjima qilarkan, bularning barini hisobga oladi. Tarjima tillarni mukammal bilish, egallash bilan yuzaga chiqadi" [16; 15-b.].

Chunonchi, tilshunoslik alohida fan sifatida sistem-struktur tilshunoslik, psixolingvistika, sotsiolingvistika, kognitiv tilshunoslik, matn tilshunosligi va shu kabi fanlar hamda yo'nalishlar bilan bir qatorda o'sib-ulg'ayib boradi. Bu sohalar bir-birini qo'llab-quvvatlaydi, bir-biridan kuch oladi va bir-birini to'ldiradi. Ma'lumki, har qanday idrok etish, mulohaza yuritish, tushunish, tahlil qilish hamda alohida aqliy faoliyat turlari bilan shug'ullanish jarayoni inson tafakkuri mahsulidir. "Aleksandr Blokning aytishicha, yozuvchining (so'zlovchining) uslubi uning qalbida kechayotgan kechinmalarini yaqqol ko'rsatib turadi. Tajribali va o'tkir zehni inson uning uslubiyati orqali yozg'uchining qalbini 'ko'ra oladi', uning uslubiy ifodasini tushuna olganlar esa qalb tubini ham kuzata oladi" [17; 169-b.].

Demak, tarjima jarayoni, tarjimaga bog'liq har qanday olib boriladigan tadbirlar mutarjimning asliyat matniga singdirilgan xabar-ma'lumotlarni tushunish, tahlil qilish va idrok etish mahsuli hamda mazkur sohani muayyan darajada bilish jarayonining mevasidir. Tarjimachilik ham ongli va shu bilan birgalikda ijodiy hodisa hisoblanib, bevosita inson tafakkuri mahsulining lisoniy bilim orqali voqelanishidir.

Tarjimon tomonidan qabul qilinayotgan ma'lumot, uning tahlil qilinishi hamda uni tarjima matnida qayta aks ettirilishi ko'p bosqichli jarayon hisoblanadi. Eng asosiysi, aynan shu bosqichli jarayonda "oralig' til" faoliyat ko'rsatadi. Oralig' til, Yu. N. Karaulov aytganidek, aqliy faoliyat va uning lisoniy voqelanishi jarayonida yuzaga keladi va "tovushli, tashqi nutq va miya (ong)ning o'ziga xos tili oralig'idan o'rin oladi" [18; 184-b.].

Tilmoch xotirasida mavjud bo'lgan va keyinchalik shakllangan ma'lumot zaxirasi asliyat matnida berilgan yangidan idrok qilinayotgan voqelikning aqlan "qayta ishlanishi"da muhim rol

o'ynaydi. Yangi o'zlashtirilgan ma'lumot eskisi bilan taqqoslanadi, yangi ma'lumot mavjud bo'lgan bilim asosida yuzaga keladi. Bunda tarjimon tomonidan egallangan tajribaning ishga solinishi natijasida shakllanadigan bilim konseptual qurilmalarning umumlashgan tuzilishga ega ekanligini ko'rsatadi. Mutarjimning avvalgi tajribasining faollashuvi shaxs idrokining faol harakati asosida yuzaga keladi. Tarjimon-ijodkor borliqni o'z qiziqishi va ehtiyojidan kelib chiqib qabul qiladi. Muayyan adabiy asar uni mutolaa qilayotgan inson uchun alohida ahamiyat kasb etadi. Masalan, bu asar kim uchundir shunchaki vaqt o'tkazish uchun o'qilayotgan kitob, kim uchundir tadqiqot materiali bo'lsa, tarjimon uchun esa, agar u tarjima qilinayotgan asar bo'lsa, chinakam tajriba manbai bo'lib xizmat qiladi. Natijada "insonning idrok faoliyati jarayonida (uning qiziqishi va ehtiyojiga nisbatan) predmet va hodisalarning idrokiy (tushunchaviy) umumlashirilishi yuzaga keladi" [19; 63-b.].

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, til va tafakkur insonning maqsadli faoliyati natijasida hosil bo'lib, u insonlar o'rtasidagi muloqot jarayonida voqelikka nisbatan bildirilayotgan munosabatlarni ifoda etadi. Shu sababli tarjimachilik ongli va ijodiy faoliyat turlaridan hisoblanadi. Tarjimon tarjimada leksik birliklarni (yoki istalgan tarjima birligini) bir tildan boshqasiga o'g'irganda, mazkur birliklarning kognitiv asoslari va strukturaviy-semantik jihatlariga katta e'tibor qaratishi lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Musayev Q. Tarjima nazariyasi asoslari. – Toshkent: Fan, 2005. – B. 3.
2. Qodiriy A. O'tkan kunlar. – Toshkent: Sharq, 2004. – B. 13.
3. Qodiriy A. O'tkan kunlar. – Toshkent: Sharq, 2004. – B. 23.
4. Tukhtasinov I. M., Muminov O. M., Khamidov A. A. "The Days Gone By" by A. Kadiriy. – Toshkent: Mashhur-press, 2017. – P. 24.
5. Ermakova C. Days Gone By. – Paris: Nouveau Monde Editions, 2018. – P. 26.
6. Reese M. Bygone Days by A. Qodiriy. – Middletown: USA, 2019. – P. 42.
7. O'zbek tilining izohli lug'ati. – Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2006. – B. 199.
8. O'zbek tilining izohli lug'ati. – Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2006. – B. 184.
9. Бархударов Л. С. Язык и перевод. – М.: Международные отношения, 1975. – С. 174–189.
10. Гумбольдт В. Фон Избранные труды по языкознанию. – М.: Прогресс, 2000. – С. 9.
11. Сафаров Ш. Когнитив тилшунослик. – Жиззах: Сангзор, 2006. – Б. 72.
12. Вежбицкая А. Сопоставление культур через посредство лексики и грамматики. – М.: Языки славянской культуры, 2001. – С. 272.
13. Salomov G'. Tarjima nazariyasi asoslari. – Toshkent: O'qituvchi, 1983. – B. 25.
14. Usmon O., Doniyorov R. O'zbek tilidagi ruscha-internatsional o'zlashtirma so'zlar lug'ati. – Toshkent, 1965. – B. 168.
15. G'ofurov I., Mo'minov O., Qambarov N. Tarjima nazariyasi. – Toshkent: Tafakkur bo'stoni, 2012. – B. 15.
16. Виноградов В. В. Проблема авторства и теория стилей. – М., 1961. – С. 69.
17. Караулов Ю. Н. Русский язык и языковая личность. – М.: Издательство ЛКИ, 2010. – С. 184.
18. Хоффман И. Активная память: экспериментальные исследования и теории человеческой памяти. – М.: Прогресс, 1986. – С. 63.